ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Nozliya Normurodova**
Samixon Ashirboyev
Abdumurod Tilavov

Mas’ul kotib: Anvarbek Turdialiyev

Tahrir kengashi

Mominova Bag‘dan (Ostona), Mingboyev Nurlon (Chimkent), Ercan Alkaya (Turkiya), Turdimov Shomirza (O‘zRFA), Jo‘raqoziyev Nodirjon (VM), Alniyazov Ayitmurat (Nukus), Xolmanova Zulxumor (ToshDO‘TAU), Ibrohimov Yo‘ldosh (Nukus), Saidqulov Ilhom (ToshDO‘TAU), Murodova Nigora (Navoiy), Jabborov Xo‘jamurod (Qarshi), Darvishev Ibrohim (Namangan), Aliqulova Hulkar (ToshDO‘TAU), Xidraliyeva Zoxira (ToshDO‘TAU), Norboyeva Shukurjon (Urganch), Rahmonov Navro‘z (Navoiy), Ibragimova Zamira (Nukus), Hakimova Muhayyo ToshDO‘TAU), Umurzoqova Marhabo (ToshDO‘TAU), Ubaydullayev Alisher (O‘zMU), Alimardanov Elyor (ToshDO‘TAU), Egamqulov Kamoliddin (ToshDO‘TAU), Qodirov Umarjon (ToshDO‘TAU), Sayfullayev Baurjon (O‘zMPU).

“O‘zbekiston: til va madaniyat jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2021-yil 30-oktabrdagi № 308/6-sonli qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. “O‘zbekiston: til va madaniyat jurnalining “Folklorshunoslik. Shevashunoslik” seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro‘yxatidagi “O‘zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, o‘zbek folklorining dolzarb masalalari, o‘zbek dostonchiligi, jahon folklori, folklor janrlari, turkiy xalqlar folklori, folklor va yozma adabiyot, adabiyotimizdagi folklor motivlari, o‘zbek shevalarining fonetik, grammatik va leksik xususiyatlari, tarixiy dialektologiya, shevalarning sotsiolingvistik talqini, areal lingvistika, folklor dialektologiyasi, adabiy til va sheva munosabatlari, sheva ma’lumotlarini o‘zbek tili korpusiga teglash, dialektologiyaning nazariy asoslari, jahon dialektologiyasidagi ilg‘or g‘oyalarga oid tadqiqot natijalari nashr qilinadi.

Jurnalning maqsadi – ko‘rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e’lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e’lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-un.uz

Folklorshunoslik

Abdumurod Tilavov

O‘zbek dostonlariga doir Turkiyadagi tadqiqotlar 147

Hulkar Aliqulova

Turkiy xalqlar folklorida olqish va qarg‘ishlarning qiyosiy tipologik tahlili 160

Ilhom Jumayev

“Qutadg‘u bilig” dostonida Kuntug‘di va O‘zg‘urmish munosabatlarining folklor motivlariga xos talqini 171

Norkulova Shaxnoza

“Boburnoma”da xalq og’zaki ijodi namunalari badiiy talqini 181

Dilorom To‘rayeva

Usmon Azim ijodida folklor namunalari va xalqona ohang **.....** 189

Mahkamova Dilafruz

“Bilga Xoqon” obrazining zamonaviy nasr va nazmda ifodalanishi .. 198

Rajabbayeva Ozoda

O‘zbek mifologiyasida “Irq bitik”ning qimmati 207

Abduraximova Nazokat

O‘zbek va turk xalqlarida nikoy to‘yi marosimi 216

Turobova Mohinur

O‘zbek laparlari va turk karshilikli manilari tadqiqi 224

O‘ZBEK MIFOLOGIYASIDA “IRQ BITIK”NING QIMMATI

Rajabbayeva Ozoda[1*]

Abstrakt

Maqolada “Irq bitik”ning o‘rganilishi, mifologiyadagi ahamiyati, matnning mazmuni va turli tabdillari asosida ko‘rib chiqildi. Turkcha, ozarbayjoncha tarjimalar orqali matnlar to‘liq ko‘rib, tahlil qilindi. Kitobning tuzilishi, mazmuniga to‘xtab o‘tildi. Asardan parchalar berilib, uning tarkibidagi mifologik obrazlar, ramzlar va kultlar tahlil qilindi. Tush ta’birining o‘sha davr va bugun uchun qimmati qanday ekanligi, asarning til tarixi bilan birga turkiy mifologiya uchun ahamiyati haqida mulohazalar yuritildi.

Kalit so‘zlar: irq, tush ta’biri, fol, yaxshilik, yomonlik, obraz, shomon, moniylik.

Kirish

O‘zbek mifologiyasini o‘rganishda qadimgi turkiy yozma manbalar ham asos vazifasini o‘taydi. “Oltin yorug‘”, “Irq bitik”, “O‘rxun-Enasoy” toshbitiklari kabi manbalar nafaqat til tarixi uchun, balki turkiy, xususan, o‘zbek mifologiyasi uchun ham qimmatga ega.

“Irq bitik” ancha uzoq tarixga ega bo‘lishiga qaramay, qog‘ozga bitilgan ilk runik yozuvida yozilgan manbalardan biri hisoblanadi. Izlanishlarga ko‘ra, u IX asrda tush ta’birini aniqlash uchun yaratilgan va qo‘llab kelingan. Uni birinchi bo‘lib ingliz olimi Arnold Steyn XIX asrning oxirida Dunxuan shahridagi buddaviylar ibodatxonasidan topgan. Mazkur asarning bo‘yi 13.6 sm, eni esa 8 sm, 57 sahifadan iborat bo‘lib, sahifalari belgilanmagan [G.Uluç, A.Hüseynli, D.Mehdiyeva,

[1]*Rajabbayeva Ozoda* - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti
E-pochta. ozodarajabbayeva05@gmail.com
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0009-7233-7810
Iqtibos uchun: *Rajabbayeva O. 2025. “O‘zbek mifologiyasida “Irq bitik”ning qimmati”.* O‘zbekiston: til va madaniyat. Folklorshunoslik. Shevashunoslik. 2. 207-214. Doi. 10.52773/tsuull.uzlc-folklore.2025/PPTD3445

Ö.Qır, İ.İbrahimova, C.Sərxanbəyova, 2013; 7-b.]. Ushbu qo‘lyozma hayvonlar, tabiat hodisalaridagi ramziy obrazlari orqali insonlarga yaxshilik va yomonliklar kelishi mumkinligiga ishoralar orqali bitilgan.

Asarning nomini o‘zi ham ko‘p narsaga oydinlik kiritadi. “Irq” so‘zi “fol” so‘ziga, “bitik” so‘zi esa “kitob”so‘ziga mos keladi. Asarning oxirgi sahifasida uning sanasi, nomi va kim uchun mo‘ljallab yozilganligi ko‘rsatilgan: “Bars yili ikkinchi oyining o‘n beshinchisida Isig Sangun va Itachuk uchun yozdim” [G.Soatova, 2020; 2-b.]. Ushbu ma’lumotga tayanib, Luiz Bazin asarni 930-yilning 17-martida yoki 942-yilning 4-mart sanasida yozilgan bo‘lishi mumkinligini aytsa, Marsel Erdal VIII-IX asrlarda yozilganini ta’kidlaydi [T.Tekin, 2013; 13-b.].

Shuningdek, asar matni ba’zi olimlar tomonidan tarjimalar qilingan va o‘rganilib, ma’lumotlar berishgan. Masalan, V. Tomsen uni ingliz tiliga tarjima qilgan. Olimlarning ta’kidlashicha V. Tomsen tarjimasida ba’zi kamchiliklar kuzatilgan. Masalan: “ertalab” ma’nosidagi “yarın” so‘zini “early”, ya’ni “barvaqt” so‘ziga adashtirgan. Shuningdek, H.N.O‘rkun tomonidan turk tiliga, S.Y.Malov tomonidan rus tillariga tarjima qilingan [T.Tekin, 2013; 14-b.]. O‘zbek olimlaridan esa Q.Sodiqov va N.Rahmonov tarjimalarini ko‘rishimiz mumkin.

“Irq bitik” qo‘lyozmasi aytib o‘tganimizdek, boshqa sohalar bilan birgalikda mifologiya uchun ham ahamiyat kasb etadi. Asarni mifologik jihatdan ham olimlar o‘rgangan. Masalan, I.V.Stebleva o‘zining “Жизнь и литература до-исламских тюрков” asarida mifologiya haqida umumiy ma’lumotlar berib o‘tgan. S.G.Klyashtorniy bitikdagi so‘zlarning deshifrovkasini qaytadan amalga oshirish orqali turkiylarning mifologiyaga asoslangan dunyoqarashi haqida yaxlit fikrga kelish mumkinligini aytadi [N.Jo‘raqo‘ziyev, 2018;15-16-b.]. Qo‘lyozmadagi obrazlar tizimida, syujet yoki voqealar bayonida aynan moniylik tasavvurlari bilan bog‘lanuvchi detallar kuzatilmaydi. Ayniqsa hayvon ramzlari bilan bog‘liq mifologik tasavvurlar asar ildizlarini Ko‘k Tangri dini, shomonlik ishonchi bilan bog‘lashini ko‘rish mumkin” [G.Soatova, 2020; 2-b.]. Bundan tushunish kerakki, “Irq bitik” moniylik va shomonlikka asoslangan deyish xato bo‘lmaydi. “Irq bitik” runik yozuvida yozilganini aytib o‘tgan edik. Quyida ushbu yozuvning harflarini keltiramiz:


IRK BİTİG ƏLİFBASI

Samitlər				
İncə		Qalın		
	eb		ab	
	ed		ad	
	eg		aq	
	ek		ak	
	el		al	
	en		an	
	er		ar	
	es		as	
	et		at	
	ey		ay	
Tək səslilər				
	aç		anç	
	em		ənq	
	ap		ant	
	az		any	
	ök		ok	
	ot			

Quyida “Irq bitik” asaridan mifologiyaga oid parchalarni ko‘rib chiqamiz:

Qadimgi turkiy mifologiyada Nasigay obrazi ham ahamiyat kasb etadi. U Ko‘k Tangrining chaqmoq nayzasi hisoblanib, yovuz ruhlarni Nasigay orqali quvg‘in qilgan yoki jazolagan [N.Jo‘raqo‘ziyev,2018;46-b.]:

9-cu ırk




“Katta bir uy yonib bitdi. Hech nimasi qolmagan. Devorigacha qolmagan. Shunday bilinglar: yomondir bu.” [G.Uluç, A.Hüseynli, D.Mehdiyeva, Ö.Qır, İ,İbrahimova, C.Sərxanbəyova,2013;33-b.].

Chaqmoq urgan uyning sohibini Ko‘k Tangri gunohlari uchun jazolagan deb tushunganlar. Hatto chaqmoq chaqqan hayvon go‘shtini ham iste’mol qilishmagan.

Osmonning eng yuqori qismida Ko‘k Tangri yashagan bo‘lib, qolgan darajalarida turli ruhlar bo‘lgan. Insonlar tasavvurida o‘sha ruhlar samoviy otlarda yurishgan. Bu ma’lumotga “Irq bitik”dan yorqin misol keltirish mumkin:

2-ci ırk



“Ola otli yo‘l Tangriman. Kunduz-kecha kezaman. Ikki oylik kishi o‘g‘lini uchratdim. Kishi o‘g‘li qo‘rqdi. Qo‘rqma, dedim. Qut bergayman, dedim. Shunday biling: ezgu bu.”


Shu sababli ham otlarni Ko‘k Tangriga qurbonlik qilishgan va ot muqaddas xudolar va ruhlarga tegishli deb hisoblangan. Ko‘k Tangriga tegishli elchilar zotdor otlarda yurishgan [N.Jo‘raqo‘ziyev,2018;96-b.].

Bitikdagi ramzlardan tog‘ni keltirishimiz mumkin. Tog‘ tushda ko‘rilsa, yaxshilik olib keladi degan tasavvurda bo‘lishgan.

Qo‘lyozmada mifologiyaga oid yana bir ramz muhim

ahamiyatga ega bo‘lib, uni turli misollarda ko‘rish mumkin. Quyosh insonlar tasavvurida ularni ezgulik, farovonlik yaxshilikka olib borishi, tushda quyoshni ko‘rish esa yaxshilikning belgisi ekanligi, ya’ni o‘sha inson hayotida farovonlik, orzu-niyatlarining ro‘yobga chiqishi va ko‘plab yaxshiliklarning guvohi bo‘lishi kabi jarayonlar yuz berishi ko‘zda tutilgan:

52-ci ırk




“Eryigitqayg‘uli,osmonbulutlibo‘ldi.Ularorasidaquyoshbalqidi, qayg‘u orasiga shodlik keldi. Bilingki, bu yaxshi.” [G.Uluç, A.Hüseynli, D.Mehdiyeva, Ö.Qır, İ,İbrahimova, C.Sərxanbəyova,2013;76-b.].

Ushbu parchadan bilishimiz mumkinki, quyosh porlashi bilan yigitning qayg‘usi yo‘qoldi. Quyosh kultiga ham alohida urg‘u berilganligining shu kabi namunalari mavjud.

Bitikning eng asosiy mazmunini Ko‘k Tangri haqidagi tush ta’birlari tashkil etadi desak xato bo‘lmaydi. Bunga ko‘plab misollar keltirish mumkin va o‘rinlidir:

48-ci ırk




“Eski yo‘l Tangrisiman. Sinig‘ingni tuzatarman, uzilgan joyingni ulayman, yordam qo‘limni cho‘zaman, ezgulik bo‘lsin der. Shunday bilinglar: yaxshidir bu.” [G.Uluç, A.Hüseynli, D.Mehdiyeva, Ö.Qır, İ,İbrahimova, C.Sərxanbəyova,2013;72-b.].

Ko‘k Tangri hamisha insonlarga yaxshilik ulashishining, yordam qo‘lini cho‘zishining va har qanday ish u uchun oson ekanligining guvohi bo‘lamiz.

Yana bir boshqa misolni keltirish mumkin:


38-ci ırk



“Qamishlar orasida qoldi, Tangri bunga rozi bo‘lmadi, shuning uchun qaror qildiki, xotin olsin. Shunday biling: yaxshi bu.” [G.Uluç, A.Hüseynli, D.Mehdiyeva, Ö.Qır, İ,İbrahimova, C.Sərxanbəyova,2013;62-b].

Ko‘k Tangri bilan birgalikda, yer osti Xudosi Erlikxon haqida ham ta’birlarida keltirilgan:

12-ci ırk



“Er (yigit) ovga bordi, tog‘da qamlandi, tangridir Erklig (Erlik-osmonda) deyishadiki: shunday bilinglar, yomon bu.”

Ushbu matnda “qamlandi” so‘ziga ahamiyat berish lozim. “qam” so‘zi “shomon” demakdir. Qamlar tog‘da tangriga topinish marosimini o‘tkazishadi. Tangrichilikni, u bilan bog‘liq bo‘lgan barcha an’ana va udumlarning avloddan-avlodga o‘zgarmay yetib kelishi uchun shomonlar muhim ahamiyatga ega bo‘lishgan. “Qamlandi” so‘zi esa “Tangriga topindi” degan ma’noda kelgan [N.Jo‘raqo‘ziyev,2018;53-b.]. Tangri bilan bog‘lanish, ruhiy aloqada bo‘lish uchun yaqin va muqaddas makon tog‘ hisoblangan. Shu boisdan shomonlar tog‘da bu marosimni amalga oshirganlar.

Bundan tashqari, N.Rahmonov va Q.Sodiqovlarning tabdili ham qimmatga egadir. N.Rahmonovning “Irq bitik” haqidagi fikrlari ham qo‘lyozma to‘g‘risida qimmatli ma’lumot berishi mumkin:

“Irq bitik”da folklor motivlarini ham, kosmogonik va kalendar mifni ham, totemistik mifni ham, tabiatning jonli tasvirini ham

ko‘ramiz” [N.Jo‘raqo‘ziyev,2018;21-b.].

N.Rahmonov va Q.Sodiqov tabdillarida biroz farqlik mavjud, ammo asar mazmuniga u qadar ta’sir etmaydi. Har bir insonning o‘z individualligi bo‘lganidek, N.Rahmonov har bir folni she’riy usulda, Q.Sodiqov esa nasriy usulda tabdilini amalga oshirgan.

“Irq bitik”ning 20-foli N.Rahmonovning tabdilini tahlil qilib ko‘ramiz:

“Urg‘ochi tuyaman
Oq ko‘pigimni socharman,
Yuqorida tangriga tegar,
Pastda yerga kirar, der.
Uxlayotganlarni uyg‘otib,
Yotganlarni turg‘izib boryapman,
Shunday kuchliman,
Shunday bilinglar, yaxshidir bu.”

Q.Sodiqov tabdili:

“Men tuyaning erkagiman, oq ko‘pigimni socharman. U yuqorida osmonga yetadi, pastda yerga kiradir. Uxlayotganini uyg‘otib, yotganini turg‘izib yurarman, shunday kuchliman. Bilingki, yaxshidir.” [G.Soatova, 2020;4-b.].

Har ikkala matnda ham ma’no deyarli bir xil, ammo biroz farq mavjud. Bu tush yaxshi ekanligini, oq ko‘pigini sochib, uni osmonga yetkazgan, pastda yerga kirgizgan, hammani uyg‘otib, yotganlarni turg‘izib qo‘yadigan tuyani tushda ko‘rish yaxshilik alomati ekanligi umumiy. Ushbu yaxshilik keltiruvchi tuyaning jinsi matnda nima ekanligini aniqlash uchun asl matnga qarash lozim.

Titir : buqra : me n : ürüŋ͡q : köpükümin : s a ç a r : me n : üze : te ŋ͡qrike : te gir : a sra : yirke : kirür : tir : udıqma q : udqumur: ya t ı qlıq : turqu ru : yorıyur : me n : a ŋ͡ta q : küçlüg : me n : a ŋ͡ça : biliŋ͡qle r : e dgü : ol :[G.Soatova,2020;4-b.].

Matndan tuyaning urg‘ochi tuya ekanligi aniqlanib, N.Rahmonov tabdilini to‘g‘ri deyish mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, “Irq bitik” qadimgi turkiy adabiyotning, qolaversa mifologiyaning o‘ziga xos alohida bir bosqichi bo‘lib, uning yuksak badiiyati, chuqur falsafiy g‘oya bilan sug‘orilganligi qadimgi turk davrida katta adabiy muhit bo‘lganidan dalolatdir. Fol ochish, bashorat qilish, tush ta’birini aytish bugungi kun uchun ham ahamiyatli ekanligini hisobga olgan holda “Irq bitik” qo‘lyozmasi muhim manba deyish mumkin. O‘sha davr muhiti haqida, insonlarning yaxshilik va yomonlik to‘g‘risidagi fikrlari, tili va eng asosiysi, mifologik tasavvurlari, olam haqidagi qarashlari to‘g‘risida muhim ma’lumotga ega bo‘lish mumkin. Undagi mifologik tasavvurlar bugun ham ahamiyatini yo‘qotmaganligi diqqatga

sazovordir.

Adabiyotlar

Uluç G., A.Hüseynli, D.Mehdiyeva, Ö.Qır, İ,İbrahimova, C.Sərxanbəyova. IRK BİTİG.–Bakı, 2013

Soatova G. Shunday bilinglar: yaxshidir bu. Turkiy xalqlarning mushtarak yodgorligi "Irq bitig" asarining o'rganilishi. Maqola–Toshkent,2020

Soatova G. Turkologiyada Urxun-Enasoy yodgorliklari tadqiqi (O'zbekiston misolida). Magistrlik dissertatsiyasi–Toshkent,2020

Jo'raqo'ziyev N. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar va turkiy folklorda kosmogonik mifologiya. –Toshkent,2018

Tekin T. IRK BİTİG.–Ankara, 2013.

THE VALUE OF "IRQ BITIK" IN UZBEK MYTHOLOGY

Rajabbaeva Ozoda[1]

Abstract

The article examines the study of the "Irq bitik", its significance in mythology, the content of the text and its various translations. The texts were fully reviewed and analyzed through Turkish and Azerbaijani translations. The structure and content of the book were discussed. Excerpts from the work were given, and the mythological images, symbols and cults in it were analyzed. The value of dream interpretation for that time and today, along with the linguistic history of the work, its significance for Turkic mythology were discussed.

Key words: race, dream interpretation, fortune telling, good, evil, image, shaman, monism.

References

[1] *Rajabbaeva Ozoda* - Master's student at the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.
E-pochta. ozodarajabbayeva05@gmail.com
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0009-7233-7810
For citation: *Rajabbaeva O. 2025. "The value of "Irq bitik" in uzbek mythology".* Uzbekistan: Language and Culture. Folklore. Dialectology 2. 207-215.
Doi. 10.52773/tsuull.uzlc-folklore.2025/PPTD3445

Uluç G., A.Hüseynli, D.Mehdiyeva, Ö.Qır, İ,İbrahimova, C.Sərxanbəyova. *IRK BİTİG.*–Bakı, 2013

Soatova G. *Shunday bilinglar: yaxshidir bu. Turkiy xalqlarning mushtarak yodgorligi “Irq bitig” asarining o‘rganilishi.* Maqola–Toshkent,2020

Soatova G. *Turkologiyada Urxun-Enasoy yodgorliklari tadqiqi (O‘zbekiston misolida).* Magistrlik dissertatsiyasi–Toshkent,2020

Jo‘raqo‘ziyev N. *Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar va turkiy folklorda kosmogonik mifologiya.* –Toshkent,2018

Tekin T. IRK BİTİG.–Ankara, 2013.

Jurnal 2017-yil 26-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan. Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan (30.10.2021. No 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi 103-uy. Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

E-mail: uzlangcult@gmail.com